

NAVOIYNING "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARIDAGI
INTERTEKSTUAL BIRLIKLAR**Dosmuxamedova Sevara Boxodir qizi,***O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi*sevaradosmuxamedova@gmail.com

ORCID: 0009-0009-2795-852X

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan matn lingvistikasi, lingvokulturologiya va lingvopoetika kesimida **intertekstuallik** (matnlararolik) hodisasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda intertekstuallik terminining fanga kirib kelish tarixi, M.Baxtin va J.Kristeva qarashlari hamda N.Fateevaning intertekstual elementlar tasnifi (sitata, allyuziya, reminissensiya) atroflicha yoritilgan. Maqolaning amaliy qismida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida, xususan, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Qur'on oyatlari hamda hadislar asosida shakllangan intertekstual aloqalar "iqtibos" san'ati misolida ilmiy dalillangan. Muallif intertekstuallikni matnning mazmuniy qatlamlarini kengaytiruvchi, ijodkor va kitobxon o'rtasida madaniy-ma'rifiy muloqot o'rnatuvchi universal lisoniy hodisa sifatida talqin etadi.

Tayanch so'zlar: intertekstuallik, matnlararolik, dialogizm, allyuziya, reminissensiya, lingvopoetika, iqtibos san'ati, Alisher Navoiy, lingvokulturologiya.

Annotation. The article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of **intertextuality** (intertextual relations) within the framework of modern linguistics, specifically in the fields of text linguistics, linguoculturology, and linguopoetics. The research examines the historical development of the term, tracing its roots from M. Bakhtin's dialogism to J. Kristeva's formal definition. Special emphasis is placed on N. Fateeva's classification of intertextual elements, including citations, allusions, and reminiscences. The practical part of the study focuses on the literary heritage of Alisher Navoi, particularly his works such as "Khamisa" and "Tarixi Anbiya wa Hukamo." It demonstrates how the poet masterfully integrated Quranic verses and Hadiths through the art of "iqtibas" (quotation). The author concludes that intertextuality serves as a vital tool for expanding semantic layers and establishing a "cultural dialogue" between the author and the reader.

Keywords: intertextuality, dialogism, allusion, reminiscence, linguopoetics, Alisher Navoi, linguoculturology, iqtibas art.

Аннотация. В данной статье представлен комплексный теоретический и практический анализ феномена **интертекстуальности** (межтекстовых связей) в контексте современных направлений языкознания: лингвистики текста, лингвокультурологии и лингвопоэтики. В исследовании рассматривается история возникновения термина, начиная с теории диалогизма М. Бахтина и заканчивая введением понятия Ю. Кристевой. Особое внимание уделено классификации интертекстуальных элементов Н. Фатеевой (цитата, аллюзия, реминисценция). Практическая часть статьи посвящена анализу творческого наследия Алишера Навои, в частности его произведений «Хамса» и «Тарихи анбия ва хукамо». На примере искусства «иктибас» (цитирования) доказывается мастерское использование поэтом коранических аятов и хадисов. Автор интерпретирует интертекстуальность как универсальное языковое явление, расширяющее смысловые слои текста и устанавливающее культурный диалог между автором и читателем.

Ключевые слова: интертекстуальность, диалогизм, аллюзия, реминисценция, лингвопоэтика, Алишер Навои, лингвокультурология, искусство иктибас.

Kirish. Bugungi kunga kelib, shakllanib borayotgan matn lingvistikasi, lingvokulturologiya va lingvopoetika kabi tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida badiiy matn tarkibidagi o'zga matn yoki uning birliklari intertekstuallik termini ostida tadqiq qilib kelinmoqda.

Ayni vaqtda badiiy matnni boshqa bir matnlar bilan o‘zaro bog‘lash, ular o‘rtasidagi uzviy aloqani aniqlash, matnlarni bog‘lashga xizmat qiluvchi birliklarni tahlilga tortishga undaydi. Zero, buning natijasida fanga intertekstuallik tushunchasi kirib kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, intertekstuallik tushunchasining filologiya ilmida paydo bo‘lishiga rus olimi M.M.Baxtinning 1924-yilda nashr etilgan “Badiiy so‘z ijodiyotida mazmun, material va shakl muammosi” nomli ishi turtki bergan, olim bu tadqiqotida adabiyotning mavjudlik dialektikasini tavsiflar ekan, ijodkor tasvirlanayotgan voqelikdan tashqari o‘tmish adabiyoti va o‘ziga zamondosh bo‘lgan adabiyot bilan ham ish ko‘rishini, bu adabiyotlar bilan u doimiy “muloqot”da bo‘lishini qayd etadi [1. S-40]. Ana shu ishga asoslangan va undagi fikrlarni yangicha talqin etgan holda intertekstuallik atamasi haqida 1967-yilda, fransuz olimasi Juliya Kristeva ilk bor «ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК» (matnlararolik) atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Ushbu g‘oya uning 1966-1967 yillardagi izlanishlari, xususan, Mixail Baxtin ijodini fransuz muhitiga tanishtirishi natijasida yuzaga kelgan [2. S-239]. U tomonidan “Baxtin, so‘z, dialog va roman” risolasida ilmiy termin sifatida ishlatilgan. Olima o‘zining ushbu risolasida intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta’kidlab, ko‘proq badiiy matnda intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi. Shu bilan birga tilshunoslikka oid lug‘atlarda ham intertekstuallik atamasiga berilgan ta’riflardan birida: Intertekstuallik bu – matn ma’nosining boshqa matn orqali shakllanishidir deyiladi. Shuningdek, bu atamani aslo “plagiat” atamasi bilan adashtirish mumkin emas, chunki “plagiat”da muallif o‘zganing fikrini o‘zlashtiradi, intertekstuallikda esa ataylab ishora qiladi va kitobxon bu ishorani tanishini kutadi.

Taniqli rus tilshunos olimasi, professor Natalya Aleksandrovna Fateevaning intertekstuallik nazariyasi bo‘yicha yondashuvi kitobxoniga badiiy asarni tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi. N.A.Fateeva ushbu tadqiqotida intertekstuallik tushunchasini nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqadi. U matnni boshqa matnlar bilan doimiy muloqotda bo‘lgan “jonli organizm” sifatida talqin qiladi. Intertekstuallikning asosiy funksiyalari sifatida badiiy matnda intertekstual elementlar qanday vazifalar bajarishini tizimlashtiradi: Ekspressiv funksiya – matnning ta’sirchanligini oshirish va muallif uslubini boyitish. Konstruktiv funksiya – yangi matnni eski matnlar asosida qurish ya’ni matn ichidagi matn. Semantik funksiya ya’ni ma’no hosil qiluvchi funksiya – boshqa matnga ishora qilish orqali yangi, chuqurroq ma’no qatlamlarini yaratish. Fatik funksiya – muallif va kitobxon o‘rtasida “madaniy aloqa” o‘rnatish. Agar kitobxon ishorani tushunsa, u muallif bilan bir xil madaniy maydonda ekanligini his qiladi. Fateeva matnlarning o‘zaro bog‘lanish usullarini quyidagicha ajratadi:

1. Sitatalar: boshqa matndan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma.
2. Allyuziya: ma’lum bir tarixiy, adabiy yoki madaniy faktga ishora.
3. Reminissensiya: boshqa asar obrazi yoki uslubining ongsiz ravishda eslanishi.

4. Pastish va parodiya: boshqa muallif uslubiga taqlid qilish yoki uni mazax qilish.

Fateevaning yondashuvi talabalar hamda tadqiqotchilar uchun badiiy asarni tahlil qilishda “kodlarni ochish” kalitini beradi [3.]. Ushbu kitob, ayniqsa rus adabiyotidagi “Kumush davr” va postmodernizm asarlarini tushunish uchun juda foydali bo‘ldi.

Zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb tushunchalaridan biri hisoblangan intertekstuallik hodisasi o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan keng ko‘lamda tadqiq etib kelinmoqda. Matnning lisoniy va madaniy xususiyatlarini ochib berishda intertekstual munosabatlarning o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan, D.Xudoyberganova intertekstuallikka quyidagicha ta’rif beradi: “Intertekstuallik lot. inter – oraliq + lot. textus – mato; to‘qish; aloqa uyg‘unlik. Biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishi. Lingvokulturologiyada intertekstuallikka ikki madaniy-semiotik maydonning “dialogi” sifatida yondashiladi” [4. S-24]. Intertekstuallik turli shakllarda, jumladan, qayta yozish, iqtibos keltirish, allyuziya va parodiya ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida matn lingvopoetikasi bo‘yicha birinchi bo‘lib M.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan. Olim “Badiiy matn lingvopoetikasi tadqiqi” nomli dissertatsiyasining “2.2 Badiiy matnning mazmuniy turlari va intertekstuallik” bo‘limida intertekstuallik hodisasi to‘g‘risida o‘z tadqiqotlarini dalillar bilan isbotlagan va uni turlarga bo‘lib tahlil qilgan [5. S-314].

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy adabiy merosda intertekstuallik hodisasi o‘z manbalarini qadimiy xalq og‘zaki ijodi, diniy-falsafiy ta’limotlar va mumtoz she’riyat an’analaridan oladi. Bu yo‘nalishda, ayniqsa, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar ijodi alohida o‘rin tutadi. Ularning asarlarida intertekstual aloqalar qayta talqin etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos, nozik ishoralar (allyuziya) va hatto parodiya usullari orqali namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari islomiy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, ularda Qur’oni Karim oyatlari, hadis va rivoyatlardan foydalanish (iqtibos san’ati) keng qo‘llanilgan. Navoiyning "Xamsa" tarkibidagi beshala dostoni ham hamd va munojot qismlari bilan boshlanadi, bu yerda Allohning sifatlarini ta’riflashda oyatlardan iqtiboslar olingan. “Hayratul-abror”: Dostonining muqaddima qismida va “Bismilloh”ning sharhiga bag‘ishlangan boblarida oyatlarning mazmuni va arabcha iqtiboslar uchraydi. “Layli va Majnun” asarida ishq va ma’naviyat mavzusini yoritishda Qur’oniy g‘oyalardan samarali foydalaniladi. Diniy-tasavvufiy asarlari bevosita islomiy manbalarga asoslangan bo‘lib, ularda oyatlar asosiy matn sifatida yoki sharhlar uchun asos qilib olingan: “Sirojul-muslimin” (Musulmonlar chirog‘i): Islom dini arkonlari, e’tiqod va shariat masalalari bayon etilgan ushbu asarda oyatlarning mazmuni she’riy yo‘l bilan tushuntiriladi. "Munojot": Allohga yolborish ruhidagi ushbu asarda ham ko‘plab oyatlarga ishoralar mavjud. “Nasoyimul-muhabbat”: Avliyolar va oriflar haqidagi ushbu tazkirada ularning hayoti va qarashlarini isbotlash uchun Qur’on oyatlaridan dalillar keltiriladi. Lirik merosi (“Xazoyinul-maoniy”) Navoiyning g‘azal, qit’a va ruboiylarida “iqtibos” (oyat yoki

hadisni aynan keltirish) san'atidan mahorat bilan foydalanilgan g'azallari: Shoir g'azallarining yakuniy (maqta') baytlarida yoki baytlar orasida "ne'mal vakiyl", "kun fayakun" kabi oyat parchalarini ishlatgan. Qit'alari: "Badoye'ul-bidoya" devonidagi ko'plab qit'alarda Qur'oniy g'oyalar va axloqiy tushunchalar bayon qilingan. Shuningdek, boshqa asarlari "Nazmul-javohir": Hazrat Alining 400 ga yaqin hikmatli so'zlariga yozilgan she'riy sharh bo'lib, unda 14 o'rinda Qur'on oyatlaridan iqtiboslar uchraydi. "Mahbubul-qulub": Insoniy fazilatlar va turli ijtimoiy tabaqalar haqidagi ushbu asarda ham axloqiy xulosalarni quvvatlash uchun oyatlarga murojaat qilingan.

Tahlillar va natijalar. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" (Payg'ambarlar va hakimlar tarixi) asari adibning tarixnavislik yo'nalishidagi eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar dunyo yaralishidan to Islomiyat davrigacha o'tgan muqaddas shaxslar va donishmandlar hayotiga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy ushbu asarni taxminan 1485–1498-yillar oralig'ida yozgan. Asarning yozilishidan asosiy maqsad — o'quvchiga o'tmishdagi aziz avliyolar, payg'ambarlar va qadimiy donishmandlarning hayot yo'li orqali axloqiy va tarbiyaviy saboq berishdir. Asar ikki yirik qismdan iborat: Birinchi qism (Anbiyo — payg'ambarlar): Odam Atodan boshlab, Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v.)gacha bo'lgan payg'ambarlar tarixi bayon etiladi. Unda Nuh, Ibrohim, Muso, Iso (a.s.) kabi siymolarning mo'jizalari va hayoti haqida ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi qism (Hukamo — hakimlar/donishmandlar): Qadimgi dunyoning mashhur faylasuflari va olimlari haqida hikoya qilinadi. Navoiy har bir payg'ambar yoki hakim haqida gapirganda, mavzuni quvvatlash uchun Qur'on oyatlari, hadislar va o'zining she'riy baytlaridan iqtiboslar keltiradi. Masalan, "Vaizqola Yusufu liabihi yo abati inni raaytu ahada ashara kavkaban vash-shamsa val-qamara raaytuhum li sojidina" – Navoiy bu oyat (Qur'ondagi Yusuf surasi 4-oyat)ni deyarli o'zgartirmaydi, faqat talaffuz va badiiy ohangga moslab keltiradi: "Va iz qola Yusufu li abihi" – Yusuf otasiga aytgan payt. "yo abati"- ey otajon (mehr va hurmat ifodasi). "inni raaytu ahada ashara kavkaban" – o'n bir yulduzni ko'rdim. "vash-shamsa val-qamara" – quyosh va oy. "raaytuhum li sojidina" – ularni menga sajda qilayotgan holda ko'rdim [6. S-123]. Bu yerda tushning ta'biri Yusufning kelajakda ulug' maqomga erishib, oilasi unga hurmat bajo keltirishini bildiradi. Navoiy Qur'on matnini adabiy va fonetik moslashtirib, o'z asariga singdiradi. Shuningdek, u bu oyatni keltirib, qahramonning oddiy inson emasligini, uning ilohiy tanlangan shaxs ekanini, kelajakda ulug' darajaga yetishini oldindan bildiradi. Alisher Navoiy ushbu oyatni oddiy hikoya sifatida emas, balki ilohiy tanlanish belgisi, ruhiy kamolotni boshlanishi yoki insonga berilgan ilohiy nur ramzi sifatida ko'radi. Oyatdagi obrazlar Navoiyda yanada chuqurlashadi. Masalan, 11 ta Yulduz – hasad, raqiblar yoki insoniy sifatlarni ifoda etsa, Quyosh – oliy haqiqat, nur, ilohiy manba, Oy esa – qalb, aks ettiruvchi ruhiy holat bo'lishi mumkin. Navoiy o'z asarlarida Qur'on oyatlarini bevosita hikoya qilish uchun emas, balki ma'naviy va ramziy mazmunini kuchaytirish uchun ishlatadi. Bu mumtoz adabiyotda ham "Iqtibos san'ati" ya'ni Qur'on oyatini badiiy matnga qo'shish hisoblanadi. Shu o'rinda

shoir Qur'on oyatini o'zgartirmaydi, u oyatdagi muqaddaslikni saqlagan holda, uni she'riy ohangga moslab beradi. Bu orqali matnning ta'siri kuchayadi, o'quvchida diniy va estetik his uyg'onadi. Shu bilan birga, u bu oyat orqali Qur'on hikmatlarini adabiyotga olib kiradi, qahramonni ilohiy darajaga ko'taradi, asarga Qur'oniy ruh bag'ishlaydi va o'quvchini ma'naviy tafakkurga chorlaydi. Navoiyning aynan shu asaridagi Muso alayhis-salomga bag'ishlangan qismda, "Izrib biasokal bahra" iborasi Qur'oniy iqtibos bo'lib, u aslida Qur'ondagi Shu'aro surasining 63-oyatiga borib taqaladi. Ya'ni "Bas, Musoga vahiy qildik: "Asoing bilan dengizni ur!" bu voqea Muso va Bani Isroilning Fir'avndan qutulishi bilan bog'liq bo'lib, Navoiy bu oyatni: "Izrib bi'asokal bahra" shaklida qisqartirilgan va she'riy ohangga moslashtirilgan holda keltiradi. Bu yerda "izrib"- "ur!" (buyruq shakli), "aso"- "aso" Muso (a.s)ning mo'jizaviy hassalari, "bahr"- "dengiz" ya'ni "Asoing bilan dengizni ur!" degan ma'noni anglatadi. Bu voqea Tafsir manbalarida jumladan, Ibn Kathir sharhlarida quyidagicha izohlanadi: Muso (a.s) qavmini olib ketayotganda dengizga yetib keladi va ortidan Fir'avn qo'shini quvib kelayotganda Alloh buyruq beradi: "dengizni aso bilan ur!" dengiz yorilib, yo'l ochiladi [7. S-299]. Bu hodisa ilohiy mo'jiza sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, asosiy g'oya inson kuchi emas, balki ilohiy qudrat ustunligi hisoblanadi. Aso oddiy vosita, lekin u orqali tabiat qonunlari o'zgaradi, najot yo'li ochiladi. Navoiy bu iborani ko'pincha ramziy ma'noda ishlatadi. Masalan, "dengiz" – qiyinchiliklar, muammolar, "aso" – iymon, ilm yoki ruhiy qudrat, "dengizni urish" – muammolarni yechish ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir Qur'on oyatini qisqartirib oladi, uni she'riy matnga singdiradi va ma'nosini kengaytiradi. U bu usul bilan intertekstuallikning klassik namunasini yoritib beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida intertekstuallik Qur'on va hadislar bilan bog'liqlik, Sharq adabiy an'analariga tayanish va tasavvufiy g'oyalarni singdirish orqali namoyon bo'ladi. Shoir matnlararo aloqalarni oddiy takrorlash darajasida emas, balki ijodiy qayta ishlash asosida qo'llaydi. Natijada uning asarlari ko'p qatlamli, chuqur ma'noli va universal ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa kitobxonga an'analarga sadoqatni saqlab qolish, o'zligini unutmaslik va haq yo'lida doim sobit turishlik kabi his-tuyg'ularni beraoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кураш С.Б. Усложнённое кодирование образной информации как аспект филологического анализа художественного текста. – Мозырь: УО «МГПУ», 2003.С. 40.
2. Kristeva J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J. Kristeva // Critique, 1967. Т. 23, № 239.
3. Фатеева, Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. Литературы и языка, 1997.Т.
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2015. – B. 24.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Fil. fan. dok. dis. – Toshkent, 2009. – 314 b.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XVI tom. – Toshkent. 2000. – B. 123.
7. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni Azim muxtasar tafsiri. Movorounnahr. 2020. – B. 299.